

**YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDA YOSHLARNI BARKAMOL RUHDA
TARBIYALASH VA ULARDA BADIY IJODKORLIKNI
SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI**

Allayarova Marhabo.
O'z-Fin. Ped.I. dotsenti

Annotasiya: Maqolada ta'lif sohamizdagi islohotlarimizda yoshlarmizni ma'naviy kamolotga chorlash vazifalardan kelib chiqib ularni vatanparvarlik, insonparvarlik, o'zligini anglash, o'z mustaqil fikriga ega, insoniy qadr-qimmatni e'zozlaydigan ruhda tarbailash va bu ruhni ularning ijodiy faoliyatlariga singdrish masalasiga qaratilgan. Bunda yoshlarda ijodkorlik faoliyatini shakllantirish lozimligi tahlil qilingan. Ijodkorlik faoliyati - bu insonning o'zi va atrofidagi o'zgarishlarni anglab etishi, yangicha tafakkur qilish va o'zligini namoyon qilishi, yaratuvchanligi asosida o'z qobig'idan chiqish qobiliyati ekanligi yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: ma'naviy kamolot, ijodkorlik faoliya, vatanparvarlik, insonparvarlik, o'zligini anglash, o'z mustaqil fikriga ega, insoniy qadr-qimmat, barkamol ruh, badiiy ijod.

**THE IMPORTANCE OF EDUCATING YOUNG PEOPLE IN A HEALTHY
SPIRIT AND FORMING ARTISTIC CREATIVITY IN THEM IN THE
CONDITIONS OF NEW UZBEKISTAN**

Annotation: The article focuses on the issue of patriotism, humanitarianism, self-awareness, educating them in the spirit of patriotism, humanitarianism, self-awareness, independent thinking, respect for human dignity, and inculcating this spirit in their creative activities based on the tasks of calling our youth to spiritual maturity in our reforms in the field of education. In this, the need to form creative activities among young people was analyzed. It is explained that creative activity is the ability of a person to understand the changes in himself and his environment, to think in a new way and to express his identity, to come out of his shell based on his creativity.

Bugungi kunda mamlakatimiz dunyohamjamiatiga intilmoqda, taraqqiyot sari bormoqda, olib borilayotgan barcha jabhadagi islohotlar, jarayonlar Yangi O'zbekistonning yanada ravnaq topishi va yosh avlodninng kelajagi, barkamol inson sifatida kamol topishiga qaratilgandir. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "Yangi O'zbekiston" gazetasiga bergan intervusida Uchinchi Renessans va Yangi O'zbekiston konsepsiyalari nimani anglatishi haqida so'zlab, "Bugungi kunda butun xalqimizning qalbidan chuqur joy olgan, umummilliylar harakatga aylanib borayotgan "Yangi O'zbekiston" g'oyasi zamirida ulug' ajdodlarimiz, umuman olganda, milliy tariximizda Birinchi va Ikkinci uyg'onish davrlariga asos solgan alloma bobolarimizning orzu-intilishlari va armonlari ham mujassam, desak, adashmagan bo'lamiz... Hozirgi vaqtida mamlakatimizda yana bir muhim Uyg'onish jarayoni kechmoqda. Shuning uchun "Yangi O'zbekiston" va "Uchinchi Renessans" so'zlari hayotimizda o'zaro uyg'un va hamohang bo'lib yangramoqda, xalqimizni ulug' maqsadlar sari ruhlantirmoqda" [1], – deb ta'kidladi.

Ushbu maqsadlar sari ruhlantirishda yoshlarimizning ijodkorlik faoliyatining o‘rni va roli muhim ahamiyatga egadir. Chunonchi so‘nggi yilliklarda o‘quvchitabalalar ruhiyatida ma’naviy, ijtimoiy, psixologik va fiziologik jihatlardan salbiy o‘zgarishlar, emotsiyonal-ruhiy muammolari yuz berayotgani kuzatilmoqda. Ularning bilim olishda ma’naviy saviyasi, ijodkorligi, fikrlash jadalligi, ijtimoiy kompetensiyalari, va irodaviy fazilatlari ko‘rsatkichlari pasaydi. Shu sababli ta’lim olishdagi kompetensiyasini oshirish, ijodiy faolliklarini oshirish va rag‘batlantirish zarurati paydo bo‘lmoqda, shaxsiy, intellektual sohada iqtidorga ega bo‘lgan, badiiy qobiliyatli bolalarni tarbiyalash vazifasi yuzaga kelmoqda.

Shunga ko‘ra olib borilayotgan ta’lim sohamizdagи islohotlarimizda yoshlarimizni ushbu maqsadlar sari ruhlantirish, ma’naviy kamolotga chorlash kun tartibidagi asosiy vazifalardan biridir. Yoshlarni vatanparvarlik, insonparvarlik, o‘zligini anglash, o‘z mustaqil fikriga ega, insoniy qadr-qimmatni e’zozlaydigan ruhda tarbaiyalash va bu ruhni ularning ijodiy faoliyatlariga singdrish lozim. Ya’ni yoshlarda ijodkorlik faoliyatini shakllantirish ularni barkamol ruhda tarbiyalashning muhim omilidir. Albatta bu borada yoshlarni ma’naviy kamolotga chorlashga qaratilgan kitobxonlikka yo‘naltirish chora tadbirlari amalga oshirilmoqda, lekin bu masalaning bir tomoni ekanligini e’tibordan chetda qoldirmasligimiz kerak.

Avvalo shuni ta’kidlash lozimki, ijodkorlik faoliyati - bu insonning o‘zi va atrofidagi o‘zgarishlarni anglab etishga doimiy ravishda tayyor turish, yangicha tafakkur qilish va o‘zligini namoyon qilish asosida o‘z qobig‘idan chiqa olishidir. V.A.Engelgardt fikricha, «Ijad... - san’atning mohiyati. U xuddi shu darajada fanning ham mohiyatidir. Har ikki holatda insonning yaratish, ya’ni o‘zligini namoyon qilish qobiliyati muhim. Ilmiy kashfiyot, xuddi san’at kabi, ijodkorning muayyan xususiyatlarini o‘zida saqlab qoladi va keyingi hayoti davomida butun insoniyat boyligiga aylanadi». Biroq ilmiy ijod bilan badiiy ijod bir-biridan farq qiluvchi xususiyatga ega. Masalan, badiiy ijod insonning tasavvuri va hayotiy tajribasini tasvirlasa, ilmiy ijodda tabiatni bilish va uni o‘zgartirish tajribasi obyektivlik tamoyili asosida umumlashadi. Shelling fikricha, ijodga sirlilik xos: “Yozuvchilar, shoirlar, musawirlar ijod jarayoni qanday ro ‘y berishini tushuntirib bera olishmaydi va bu bilan faxrlanishadi ham. Xuddi o‘sha mutloq aql - Xudoning xohishi va ruhi yordamida ijod jarayoni ong nazoratidan qutuladi. Natijada «ilhom parisi» deb ataladigan sirli, ongsiz ijodiy kuch ruh uchun badiiy yaratuvchilik vazifasini bajarishga kirishadi” [2].

Ijodiy jarayonni Aflatun «ruhlanish» va «ilohiy kuch» tushunchalari bilan izohlashga intiladi. Uning fikricha, «Shoir san’ati va bilimi bilan ijod qilmay, balki ilohiy quvvatdan ijod qiladi». Shunday qilib, faylasuf shoirona ijodni mistik nazariya orqali rivojlantiradi. Bu nazariyaga binoan musavvir bexosdan (beixtiyor) telbagi o‘xshab ijod qiladi. Bu ijodiy akt o‘z-o‘zicha aqldan yiroq xarakterga ega. Musavvir va shoир o‘zları nima qilayotganlarini bilmay ijod qiladilar. Shuning uchun ham mutafakkir «Haqiqiy ijod ilohiyiksiz bo‘lmaydi», degan xulosaga keladi. Aristotel esa «Inson dunyoning eng yaxshi ijodidir», degan g‘oyani ilgari suradi. Shuningdek, u o‘zining «Poetika» asarida badiiy ijodning me’yoriy qonunlarini falsafiy jihatdan tahlil qiladi. Aristotel san’atning borliqdagi imkoniyatini faol, ijodiy yuksak badiiy mahorat bilan ifodalashda ko‘radi. Uning fikricha, «Shoirning vazifasi haqiqatan bo‘lib o‘tgan voqeа haqida emas, balki sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan, demak bo‘lishi ehtimol

tutilgan yo bo‘lishi zarur bo‘lgan voqeа haqida sozlashdir»[3]. Aristotelning fikricha, ijodiy jarayon insonning subyektiv faoliyati bilan bevosita bog‘liqdir. Shu ma’noda, ijodiy jarayonni aql yordamida ham bilish, anglash mumkindir.

Markaziy Osiyo mutafakkiri Abu Nasr Forobiy kuchga ega bo‘lmagan o‘ninchи aql o‘z navbatida yagona aql va yagona ruhni ijod qilishini ta’kidlab o‘tadi. Mutafakkir har ilm va aytilgan gap, sodir bo‘lgan narsa va yog‘du farishtadandir, deb biladi. Shuning uchun insoniy aql kuch-quwat jihatdan o‘zida farishta tabiatiga egadir. Ikki tomonlama vaziyat, ya’ni amaliy va nazariy aql vositasida ikki xil “surat”ga ega bo‘lgan insoniy aql “yerdagi farishtalar”, deb ataladi. Ruhlar taqdirining siri bundan boshqa narsa emas. Nazariy aql to‘rt taraflama holat vositasida farishta aqli bilan yoki faol aql bilan qo‘shiladiki, uni muqaddas aql, deb ataydilar. Muqaddas aql o‘zining eng oliy bosqichida o‘sha mumtoz payg‘ambarlik aqidir.[4] Darhaqiqat, Forobiyning bu fikri ijod manbai aql ekanligiga ishoradir. Chunki Olloh faqat insonga ato etgan aqldan ijodiy foydalanish bir tomondan shaxsni ma’naviy-ruhiy kamolotga undasa, ikkinchi tomondan uning ijodi natijalari jamiyat rivojiga ham ta’sir qiladi. Ibn Sino o‘zining “Risolaye Hay ibn Yaqzon” (“Yaqzon o‘g‘li Hay, ya’ni Tirik o‘g‘li Hayot haqida risola”) nomli risolasida insonning ijodiy imkoniyatlari yoritadi.[5].

Shunga ko‘ra aytish mumkinki, badiiy ijod insonni ma’naviy borlig‘ini mahsuli sifatida noyob iste’dodining namoyon bo‘lishi, ijodiy mahsulining “insayt” holatida yuzaga kelishi, “Ong usti” jarayonida sodir bo‘lishidir. Ijodkorning ruhan va botinan etukligida ma’naviy yuksak qadriyatlar, san’an asarlarining yuzaga keladi.

Inson - har qanday ijodiy harakati orqali jamiyatning haqiqiy a’zosi bo‘lishi, o‘zligini anglashi, ma’naviy etukligi, teranroq fikrlashi, ruhini esa balandroqqa ko‘tariladi. Shu ma’noda, badiiy ijod bu alohida faoliyat bo‘libgina qolmay - ijodkorning yashash usuli, ma’naviy borlig‘ining yuksak shakli hamdir. Demak, har qaysi davrda buyuklarning buyukligi ularning badiiy ijodiy faoliyatda serharakat va faol bo‘lishi, ma’naviy-ruhiy etukligi, yuksak axloqiyligi, ilohiy voqelik bilan tutashuvi mahsuli deb aytish mumkin.

Yuqoridagi fikrlardan xulosa chiqarish mumkinki, bugungi kunda yangi O‘zbekiston sharoitida yoshlarni barkamol ruhda tarbiyalash va ularda badiiy ijodkorlikni shakllantirish mamlakatimizda bunyodkorlik ishlarini, uchinchi Renessans avlodlarini yuzaga kelishiga imkonuyatlar berish lozim, ulargina ma’naviy-ruhiy etuklik bilan boy ma’naviy qadriyatlar, ilm-fan va san’atni rivojlantirishga, vataparvarlik, insonparvarlik g‘oyalarini tarannum etuvchi kuch bo‘lib hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “Yangi O‘zbekiston” gazetasiga bergen intervyusi <https://www.gazeta.uz/uz/2021/08/17/renaissance/>.
2. Gegel Georg Vilgelm Fridrix. Əstetika. V 4 -tomax. Tom 3. - Moskva: Iskusstvo 1971.-624 s.
3. Aristotel. Poëтика. Toshkent. 1980, 112- b.
4. Forobiy Abu Nasr Fozil odamlar shaxri. - Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi, 1993.
5. Abu Ali Ibn Sina. Izbrannoe V 2-x tomax . Vostochnaya filosofiya (al- Xikma al - mashrikina) Rukovodstvo po filosofii (Kitab al - xiday) Traktat ob opredeleniyax

O‘zbekiston-Finlandiya ta’limi va barkamol avlod tarbiyasi muammolari

(ar-Risala fn-l-xudud) Traktat ob әтике (ar-Risala fi-l-axlak) . Dushanbe - Ashgabat.: Kulturnyy центр Posolstva IRI v Turkmenistane - 2003,185.S. S-17.